

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 122 (1721), 2026-yil 18-iyun, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news



O‘ZBEKISTON — GERMANIYA: HAMKORLIK KO‘LAMI KENGAYISHIDAN IKKI TOMON HAM MANFAATDOR

17-iyun kuni Ko‘ksaroy qarorgohida mamlakatimizga rasmiy tashrif bilan kelgan Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerni kutib olish marosimi bo‘lib o‘tdi.



O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy qarshi oldi. Ikki davlat madhiyalari yangradi.

Germaniya O‘zbekistonning ishonchli va strategik hamkorlaridan. Keyingi yillarda ikki tomonlama munosabatlar barcha yo‘nalishda jadal rivojlanayotgan. Ayniqsa, oxirgi yillarda ikki davlat rahbarlarining o‘zaro tashrifi ko‘paydi, hamkorlik ko‘lami kengayadi.

2019-yilda Prezidentimiz Berlinga borib, Germaniya Kansleri va Prezidenti bilan davlatlarimiz o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish borasida muzokaralar o‘tkazgan bo‘lsa, o‘sha yili may oyida

Prezident Frank-Valter Shtaynmayer Toshkentga keldi.

2023-yilda Prezidentimiz yana Germaniyaga bordi. Oradan bir yil o‘tib, 2024-yil kuzida Germaniya kansleri yurtimizga tashrif buyurdi. O‘zaro tashriflar asnosida ikki davlat o‘rtasidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish borasida samarali kelishuvlarga erishildi.

Tantanal marosimdan so‘ng O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Germaniya Federativ Respublikasi Prezidenti Frank-Valter Shtaynmayerning tor doirada hamda rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuvda O‘zbekiston — Germaniya hamkorligini yanada rivojlantirish, siyosiy muloqotni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy aloqalar va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirishning asosiy masalalari ko‘rib chiqildi.

O‘zbekiston Prezidenti Germaniya Prezidentining o‘z mamlakati va Yevropa Ittifoqining O‘zbekiston hamda Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlarini izchil rivojlantirish hamda o‘zaro manfaatli mintaqalararo hamkorlikni ilgari surishga qo‘shgan shaxsiy hissasini alohida e‘tirof etdi.

► Davomi 2-betda

FORUM DOIRASIDAGI SAMARALI MULOQOTLARDA KO‘P TOMONLAMA ALOQALAR KO‘RIB CHIQLIDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov, Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infratuzilma vaziri Suhayl al-Mazruiy boshchiligidagi delegatsiya, Xitoy Xalq Respublikasi Milliy energetika boshqarmasi rahbari Van Xunchji boshchiligidagi ushbu mamlakatning yetakchi kompaniyalari va moliya institutlari delegatsiyasi, Buyuk Britaniyaning investitsiyalar bo‘yicha davlat vaziri, lord Djeyson Stokvud boshchiligidagi delegatsiya va O‘zbekiston — Saudiya Ishbilarmonlar kengashi hamraisi, “ACWA” kompaniyasi boshqaruvi raisi Muhammad Abunayyanni qabul qildi.



Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov suhbat avvalida davlatimiz rahbariga Qozog‘iston Respublikasi Prezidenti Qosim-Jomart Toqayevning samimiy salomi va ezu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston — Qozog‘iston strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini yanada chuqurlashtirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Barcha darajalardagi faol muloqot mamnuniyat bilan qayd etildi. Tovar ayirboshlash hajmlari o‘shirib, yaqinda qabul qilingan yangi “yo‘l xaritasi” asosida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarida kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish davom etmoqda.

Iyul oyida bo‘lib o‘tadigan Hukumatlararo komissiya yig‘ilishi hamda Aqtau shahrida o‘tkaziladigan hududlar rahbarlarining birinchi Kengashiga puxta tayyorgarlik ko‘rish muhimligi ta’kidlandi.

Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infratuzilma vaziri Suhayl al-Mazruiy boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashuvda O‘zbekiston — BAA strategik sheriklik munosabatlarini jadal rivojlanib borayotgani alohida qayd etildi.

Suhbat avvalida vazir davlatimiz rahbariga BAA Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon, Bosh vaziri, Dubay amiri Shayx Muhammad Ol Maktum, Vitse-

prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon va Abu-Dabi Amirlihi valiahdi Shayx Holid Ol Nahayonning salomi va eng ezu tilaklarini yetkazdi.

Qayd etilganidek, tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi, qo‘shma korxonalar soni ortib bormoqda. Beshinchi Toshkent investitsiya forumi doirasida BAA kompaniyalari bilan qator yangi kelishuvlar imzolaniishi kutilmoqda.

“Yashil” energetika, yoqilg‘i ishlab chiqarish, transport, logistika, sun‘iy intellekt, raqamlashtirish va boshqa yo‘nalishlardagi yirik loyihalarni jadalashtirishga kelishib olindi.

► Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING BESHINCHI TOSHKENT XALQARO INVESTITSIYA FORUMIDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, hurmatli forum ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Qadri do‘stlar!

Bugun beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida qatnashayotgan davlat va hukumat rahbarlari, nufuzli xalqaro moliya institutlari, yirik kompaniyalar, jamg‘armalar vakillari va yetakchi ishlabarmonlarni ko‘rib turganimdan behiyo xursandman.

Sizlarning ishtirokingiz xalqaro miqyosda Yangi O‘zbekiston taraqqiyotiga bo‘lgan ishonch tobora ortib borayotganining yana bir ifodasidir.

Forum doirasida birgalikdagi harakatlarimiz katta marralarga erishish uchun mustahkam poydevor bo‘lmoqda. Xususan, so‘nggi yillarda yurtimizga 150 milliard dollardan ziyod xorijiy investitsiya jalb qilingan bo‘lsa, shundan 123 milliard dollari oxirgi besh yilga to‘g‘ri kelmoqda.

Biz O‘zbekiston bilan hamkorlik qilishdan manfaatdor bo‘lgan, teng huquqli va o‘zaro foydali sheriklikka tayyor investorlar uchun doimo ochiqmiz.

Joriy yilgi forumda dunyoning 100 dan ortiq davlatidan 4 mingga yaqin xorijiy mehmonlar qatnashayotgani ham anjumanimiz nufuzi yuksalib borayotganini yaqqol tasdiqlaydi.

Fursatdan foydalanib, tadbirimizda ishtirok etayotgan Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begay Janobi Oliylariga, Rossiya Federatsiyasi Hukumati Raisi Mixail Mishustin

Janobi Oliylariga, Belarus Respublikasi Bosh vaziri Aleksandr Turchin Janobi Oliylariga, Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri Ali Asadov Janobi Oliylariga, Qozog‘iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov Janobi Oliylariga, Qirg‘iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi — Prezident Administratsiyasi rahbari Adilbek Kasimiyev Janobi Oliylariga, Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda Janobi Oliylariga alohida minnatdorlik izhor etaman.

Shu bilan birga, jadal islohotlarimiz yo‘lida biz bilan yaqindan hamkorlik qilib kelayotgan Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Yangi taraqqiyot banki, shuningdek, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Osiyo taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki, Yevropa investitsiya banki hamda xorijiy banklar, kompaniya va tashkilotlar vakillariga samimiy tashakkur aytaman.

Yangi O‘zbekistonga xush kelibis, qadri do‘stlar!

Hurmatli forum ishtirokchilari!

Jahon iqtisodiyoti va global kapital xaritasi keskin o‘zgarayotgan, savdo ziddiyatlari avj olayotgan hozirgi sharoitda har qanday investor tadbirkorlarning huquq va erkinliklari ishonchli himoya qilinayotgan, iqtisodiyot jadal sur‘atlar bilan o‘shirib borayotgan, keng imkoniyatlar mavjud bo‘lgan davlatlarga sarmoya kiritishga intilishi tabiiy, albatta.

Shu bois, biz Yangi O‘zbekistonda investitsiya muhitini tubdan yaxshilash

yo‘lida tizimli chora-tadbirlarni olib boryapmiz. O‘tgan yili yalpi ichki mahsulotimiz 7,7 foizga o‘tdi, iqtisodiyotga 43 milliard dollar investitsiya jalb qilindi. Milliy valyutamiz barqarorligi ta‘minlanib, xalqaro xazinalarimiz hajmi 70 milliard dollardan ortdi.

Ko‘pchilikning yodida, biz to‘rt yil avval bo‘lib o‘tgan ilk forumda 2026-yil yakuniga kelib, O‘zbekistonning yalpi ichki mahsulotini 100 milliard dollarga yetkazishni maqsad qilgan edik. Jadal sur‘atlarda o‘shirib borayotgan iqtisodiyotimiz bu yil 180 milliard dollardan ortishi kutilmoqda. Shu bilan birga, O‘zbekistonning xalqaro kredit reytingi yil sayin yaxshilanib bormoqda. Joriy yilda mamlakatimiz nufuzli “Iqtisodiy erkinlik indeksi”da 14 pog‘ona yuqorilab, ilk bor “iqtisodiyoti mo‘tadil erkin” davlatlar qatoridan joy oldi.

Bularning barchasi O‘zbekiston iqtisodiyoti yangi sur‘at va yangi imkoniyatlar bosqichiga chiqayotganiga yorqin misoldir. Hurmatli anjuman qatnashchilari!

Bugungi forum mavzusi “Investitsiyaviy barqarorlik: yangi marralar va yangi sheriklik” deb nomlangani ham bejiz emas. Biz oldimizda turgan katta maqsadlarga faqat birgalikdagi sa‘y-harakatlarimiz orqali erisha olamiz. Ko‘p qirrali hamkorligimizni yanada kengaytirish uchun bir qator ustuvor yo‘nalishlarga to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Birinchi yo‘nalish — investorlar uchun huquqiy kafolat tizimini yanada kuchaytirish.

► Davomi 2-betda

TOSHKENT INVESTITSIYA RUHI — DUNYONING YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIGA ORTIB BORAYOTGAN ISHONCHI, UMUMIY MUVAFFAQIYATI RAMZI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 17-iyun kuni beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisida ishtirok etdi va nutq so‘zladı.

Investitsiya — xalqaro savdo urushlari, global ta‘minot zanjiridagi uzilishlar bilan bog‘liq muammolar kechayotgan, boshqa tomondan, raqobat tobora kuchayib borayotgan sharoitda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashning muhim omillaridan biriga aylandi. Ayniqsa, jadal taraqqiyot yo‘liga o‘tayotgan mamlakatimiz uchun investitsiya masalasi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Shu ma‘noda, Toshkent xalqaro investitsiya forumi nufuzining yildan yilga oshib borayotgani diqqatga sazovor. Binobarin, dastlabki yillarda forumda o‘nlab davlatlardan ishtirokchilar

qatnashgan bo‘lsa, bu safar 100 dan ortiq mamlakatdan 10 mingdan ziyod delegat va ishtirokchilarni bir joyda jamladi.

Beshinchi bor o‘tkazilayotgan ushbu forum nufuzini faqat son bilan baholash xato bo‘ladi. Zero, forum ishtirokchilarining dunyo ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi o‘rni hamda ularning yangi O‘zbekistondagi islohotlarga ishonchi mustahkamlanib borayotgani, mamlakatimizga intilayotgani nuqtayi nazardan ham yil sayin sifat jihatidan o‘shirib bormoqda.

► Davomi 3-betda

ALBANIYA PREZIDENTINING MAMLAKATIMIZGA TASHRIFI YAKUNLANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begay rafiqasi hamrohligida 16-17-iyun kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo‘ldi.

Tashrifning birinchi kuni Toshkent shahrida O‘zbekiston va Albaniya Prezidentlari rasmiy delegatsiyalar ishtirokida muzokara o‘tkazildi. Ikki davlat o‘rtasida amaliy hamkorlikni yanada mustahkamlash istiqbollari ko‘rib chiqildi.

Oliy martabali mehmon rafiqasi hamrohligida shu kuni poytaxtimizdagi “Yangi O‘zbekiston” bog‘iga tashrif buyurib, Mustaqillik monumenti poyiga gulchambar qo‘ydi.

Albaniya yetakchisi tashrif doirasida Samarqandda ham bo‘lib, Imom Buxoriy



majmuasini ziyorat qildi. Amir Temur maqbarasi, Registon majmuasi, Mirzo Ulug‘bek muzey-rasadxonasi, Samarqand xalqaro turizm markazidagi “Boqiy shahar” tarixiy-etnografik majmuasiga tashrif buyurdi.

► Davomi 3-betda



“ Davlatimiz rahbari mamlakatimiz xalqaro reytinglarda o'z pozitsiyasini mustahkamlab borayotgani, jumladan, “Iqtisodiy erkinlik indeksi”da O'zbekiston ilk bor “iqtisodiyoti mo'tadil erkin” davlatlar qatoridan joy olganiga alohida e'tibor qaratdi.

TOSHKENT INVESTITSIYA RUHI — DUNYONING YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTIGA ORTIB BORAYOTGAN ISHONCHI, UMUMIY MUVAFFAQIYATI RAMZI

Boshlanishi 1-betda

Bu yilgi forumda Yevropaning ikki davlati Prezidentlari, Markaziy Osiyo davlatlari bilan bir qatorda, ko'hna qit'aning qator mamlakatlari Bosh vazirlari, dunyoning yirik yetakchi xalqaro moliya tashkilotlari rahbarlari ishtirok etayotgani ham fikrimizning yorqin tasdiqi'dir.

Jumladan, Xalqaro kongress markazida bo'lib o'tgan forum yalpi majlisida Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begay, Rossiya Federatsiyasi Hukumatini Raisi Mixail Mishustin, Ozarbayjon Respublikasi Bosh vaziri Ali Asadov, Belarus Respublikasi Bosh vaziri Aleksandr Turchin, Qozog'iston Respublikasi Bosh vaziri Oljas Bektenov, Qirg'iz Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Raisi — Prezident Administratsiyasi rahbari Adilbek Kasimiyev, Tojikiston Respublikasi Bosh vaziri Qohir Rasulzoda, Yangi taraqqiyot banki rahbari Dilma Rusef hamda boshqa ko'p tomonlama moliya institutlari, xorijiy banklar, global korporatsiyalar, yirik kompaniyalar, investitsiya fondlari va ishbilanmon doiralari vakillari ham qatnashdi.

Forumning yana bir muhim jihati — mehmonlar Toshkentga sun'iy rag'bat evaziga shunchaki emas, o'zaro manfaatli investitsiya kelishuvlari tuzish, yangi O'zbekiston iqtisodiyotiga sarmoya yo'naltirish borasida qat'iy maqsad bilan keldi. Bu, o'z navbatida, O'zbekistondagi barqarorlik, mamlakatimizning iqtisodiy istiqbol va investitsiyaviy jozibadorligiga xalqaro moliya institutlarining ishonchi ortib borayotganini anglatadi.

Davlatimiz rahbari O'zbekiston xalqaro investorlar bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli sheriklik uchun doimo ochiq ekanini ta'kidledi.

Jahon iqtisodiyotida shiddatli transformatsiya jarayoni kechayotgan va raqobat kuchayib borayotgan sharoitda tadbirkorlarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, barqaror iqtisodiy o'sish va keng imkoniyatlarni ta'minlashga qodir bo'lgan mamlakatlarga sarmoya kiritishga intilish tobora ortib borayotgani ko'rsatib o'tildi.

Darhaqiqat, global iqtisodiy vaziyat investorlardan yanada ehtiyotkor bo'lish, xalqimiz ta'biri bilan aytganda, yetti o'lchab bir kesishni talab etmoqda. Chunki investor biror soha yoki hududga sarmoya yo'naltirar ekan, avvalo, bu qarorining istiqbolini o'ylaydi. Foyda olish yoki olmasligini tahlil qiladi. Bunda, shubhasiz, kapital, avvalo, ishonch yuqori mamlakatlarga yo'naltiriladi.

Ishonch nimaga aslanadi? Investor uchun, birinchi navbatda, bu — sarmoya kiritmoqchi bo'lgan davlatdagi investitsiyaviy muhit: huquqiy kafolatlar, adolati raqobat muhiti, mustaqil sud tizimi, samarali davlat boshqaruvi va prognoz qilinadigan

iqtisodiy siyosat mavjudligi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, mamlakatimizda keyingi yillarda xususiy mulk daxlsizligini ta'minlash, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, biznesda davlat ishtirokini qisqartirish, bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va investitsiya muhitini yaxshilash borasidagi keng ko'lami islohotlar O'zbekistonda eng jozibador investitsion davlatlardan biriga aylantirdi.

Prezidentimiz mamlakatimizdagi izchil islohotlar aniq natija berayotganiga alohida to'xtaldi. Qayd etilganidek, o'tgan yili mamlakat iqtisodiyoti 7,7 foiz o'sdi. Joriy yilda esa yalpi ichki mahsulot hajmi 180 milliard dollardan ortishi kutilmoqda.

Shu o'rinda bir jihatga e'tibor qaratish o'rinni to'rt yil avval, ya'ni ilk Toshkent xalqaro investitsiya forumida 2026-yil yakuni bilan O'zbekistonning yalpi ichki mahsulotini 100 milliard dollarga yetkazish maqsadi aytilgan edi. Mamlakatimizdagi jadal islohotlar samarasi o'laroq bu ko'rsatkich 2025-yilda deyarli 50 foiz ortig'i bilan uddalandi: tariximizda birinchi marta YIM 145 milliard dollardan oshdi.

Makroiqtisodiy barqarorlik mustahkamlangani muhim yutuq bo'ldi: milliy valyuta barqarorligi saqlanib qolmoqda, xalqaro xazinalar esa 70 milliard dollardan



muhitda investorlar qisqa muddatli foydadan ko'ra, asosan, uzoq muddatli barqarorlikka ko'proq e'tibor qaratmoqda. Prezidentimiz investitsiya muhitining barqaror rivojlanishi mamlakatning uzoq muddatli maqsadlariga erishishning muhim sharti ekanini ta'kidledi.

Bu borada investitsiyaviy hamkorlikni yanada chuqurlashtirish va ishbilanmonlik faoliyatini yuritish uchun zamonaviy

to'g'risidagi Singapur konvensiyasiga qo'shilish rejalashtirilmoqda.

— Ushbu choralar natijasida investorlar O'zbekistonning o'zida kafolatlangan xalqaro huquqiy himoyaga ega bo'ladi, — dedi davlatimiz rahbari.

Ikkinchi yo'nalish — kapital bozorini rivojlantirish, muqobil moliya vositalariga keng yo'l ochish. Mamlakatimiz yetakchisi ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratdi.

So'nggi yillarda O'zbekiston xalqaro bozorlarda qiymati 16 milliard dollardan ortiq obligatsiyalar joylashtirdi hamda London birjasida oxirgi besh yildagi eng yirik IPO ni amalga oshirdi.

Xalqaro kapital bozorlariga chiqishga yangi kompaniyalarni tayyorlash jarayoni davom etmoqda hamda muqobil investitsiya vositalarini rivojlantirish uchun kapital bozori va investitsiya jamg'armalari to'g'risidagi qonunlarni qamrab olgan huquqiy baza shakllantirilmoqda.

Suveren islom obligatsiyalari — sukuk dasturi amalga oshirilishi mamlakatimiz iqtisodiyotiga katta hajmdagi investitsiyalar oqimini jalb qilish uchun qo'shimcha manba bo'ladi.

Yuqori qo'shilgan qiymat zanjirlarini kengaytirishga investitsiyalarni jalb etish — uchinchi strategik yo'nalish sifatida belgilandi.

Barcha sanoat tarmoqlarida yangi texnologik bosqichga o'tish bo'yicha yirik dasturlar amalga oshirilmoqda. Yaqin yillarda sanoatda yuqori texnologiyali mahsulotlar hajmini 2,5 barobar ko'paytirish rejalashtirilgan.

Kimyo sanoati, mashinasozlik va robototexnika, yengil sanoat, qurilish materiallari ishlab chiqarish, elektrotexnika va farmatsevtika kabi drayver tarmoqlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu yo'nalishlarning umumiy investitsiya salohiyati o'nlab milliard dollarga baholanoqda.

— Sizlarning “yangi iqtisodiyot” tarmoqlaridagi tashabbuslaringizni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga tayyormiz, — dedi Prezidentimiz.

O'zbekiston yetakchisi umumiy qiymati 3 trillion dollarga baholangan muhim mineral va boshqa yer osti boyliklaridan samarali foydalanish hamda xorijiy investorlar ishtirokida “Kelajak metallari” texnoparklarini rivojlantirishning ahamiyatiga ham urg'u berdi.

“Yashil” energetika va sun'iy intellekt sohasidagi hamkorlikni yanada chuqurlashtirish to'rtinchi ustuvor yo'nalish sifatida qayd etildi.

Yaqin istiqbolda mamlakatimiz energetika balansida qayta tiklanuvchi energiya ulushi 54 foizga yetkaziladi. Shu bilan birga, energiyani saqlash tizimlari rivojlantiriladi, elektr tarmoqlari modernizatsiya qilinadi hamda “yashil” energiya hisobiga ishlaydigan data-markazlar barpo etiladi.

Sun'iy intellektni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Sun'iy intellektni joriy etish bo'yicha Milliy strategiya doirasida ta'lim, davlat xizmatlari va biznesni raqamli transformatsiya qilishga qaratilgan keng ko'lami dasturlar amalga oshirilmoqda.

Qoraqalpog'istonda sun'iy intellekt loyihalari va data-markazlar uchun imtiyozli investitsiya sharoitlari va soliq rejimiga ega maxsus zona tashkil etilmoqda.

Maxsus huquqiy rejimga ega O'zbekiston xalqaro raqamli texnologiyalar markazini ishga tushirish bo'yicha izchil ishlar bajarilmoqda.

Xorijiy ekspertlar tahliliga ko'ra, ushbu yangi yo'nalish kamida 10 milliard dollarlik qo'shimcha qiymat yaratish salohiyatiga ega.

— Asosiy vazifamiz sun'iy intellekt orqali aholining barcha qatlami hayotini yaxshilash, undan ta'lim, davlat xizmatlari va biznes jarayonida keng foydalanishdan iborat, — dedi davlatimiz yetakchisi.

Beshinchi yo'nalish — mintaqaviy transport-logistika bog'liqligini yanada rivojlantirish.

O'zbekiston hamkorlar bilan birgalikda “Xitoy — Qirg'iziston — O'zbekiston” strategik temir yo'lini qurish, Transafg'on yo'lagini barpo etish hamda “O'rta koridor” transport yo'nalishini rivojlantirish kabi yirik infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirmoqda.

— Ushbu loyihalarni to'liq ro'yogba chiqarish evaziga Osiyo va Yevropani bog'laydigan transport magistral tarmog'iga qo'shilamiz, — dedi davlatimiz rahbari.

Aviatsiya va logistika sohasida ham yirik megaloyihalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yiliga 20 million yo'lovchiga xizmat ko'rsatadigan yangi Toshkent xalqaro aeroporti qurilmoqda.

Oltinchi ustuvor yo'nalish — hududlarni rivojlantirishda investitsiyaviy hamkorlikni yangi bosqichga ko'tarish.

Mamlakatimizda jadal demografik va iqtisodiy o'sish sharoitida uy-joy qurilishi va shaharsozlik bo'yicha yirik dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yangi shahar — “Yangi Toshkent” barpo etilmoqda, yirik hududiy markazlar millionli shaharlarga aylantirilmoqda.

— 2040-yilga qadar quriladigan uy-joylar sonini 2 karra oshirib, urbanizatsiya darajasini hozirgi 51 foizdan 65 foizga yetkazishni reja qilganmiz, — dedi Prezidentimiz.

Turizm sohasini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Ushbu iqtisodiyot yo'nalishi mamlakatimizda har yili 15-20 million chet ellik sayyohni qabul qilish va ularga yiliga kamida 15 milliard dollarlik turizm xizmati ko'rsatish imkonini beradi.

Shuningdek, agrosanoat majmuasini transformatsiya qilish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini oshirish masalalariga to'xtalib o'tildi. Hozir bu ko'rsatkich yiliga 3,5 milliard dollarni tashkil etayotgan bo'lsa, kelajakda uni 10 milliard dollarga olib chiqish istiqbolli mavjud. Prezidentimiz investorlar bilan ishlab jarayoniga hudud rahbarlarini faol jalb qilish va bu borada joylarda loyihaviy hamkorlikni kengaytirish muhimligini ta'kidledi.

Nutq yakunida Markaziy Osiyo va Kavkaz investitsiya kengashlarining mintaqaviy alyansini tashkil etish bo'yicha taklif qo'llab-quvvatlandi. Ushbu tashabbus umumiy investitsiya makonini shakllantirish uchun asos bo'lishi mumkin.

Prezidentimiz huzuridagi Investorlar kengashi doirasida sarmoyadorlar bilan doimiy muloqotni yanada rivojlantirishga O'zbekiston tayyor ekanini tasdiqlandi.

Mamlakatimiz yetakchisi investitsiya faqat iqtisodiy resurs emas, balki ilg'or texnologiyalar, zamonaviy bilim va tajribalar, yangi ish o'rinlari va davr bilan hamnafas taraqqiyot ekanini ta'kidledi.

Yakunda Prezidentimiz mamlakatimizga katta ishonch va g'oyalari bilan kelayotgan xorijiy sarmoyadorlarga yangi O'zbekistonning eshiklari hamisha ochiq ekanini aytdi.

— Toshkent investitsiya ruhi barchangizni mamlakatimizga doim chorlab turishiga, umumiy muvaffaqiyat ramziga aylanishiga ishonaman. Yurtimizning go'zal tabiati, betakror madaniyati va olijanob xalqimizning mehmondo'st qalbi esa do'stligimizni mustahkamlash uchun o'ziga xos investitsiya bo'lishiga aminman, — dedi davlatimiz rahbari.

Beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasidagi tadbirlar bugun, 18-iyun kuni ham davom etadi.

Avazbek XUDOYQULOV, “Yangi O'zbekiston” muxbiri

Boshlanishi 1-betda

Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begay 17-iyun kuni poytaxtimizda o'tkazilayotgan beshinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumida ham ishtirok etib, yalpi majlisda nutq so'zledi.

— Bunday nufuzli forumda ishtirok etish men uchun katta sharaf. Taklif va samimiy mehmondo'stlik uchun O'zbekiston hukumati minnatdorlik bildiraman, — dedi Albaniya Prezidenti Bayram Begay. — Iqtisodiy hamkorlik yangi bosqichga ko'tarilayotgan bugungi davrda Toshkent

xalqaro investitsiya forumi kabi maydonlar alohida ahamiyat kasb etadi. Davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni nafaqat rasmiy muzokaralar, balki tadbirkorlar, sayyohlar, olimlar va xalqlar o'rtasidagi aloqalar orqali ham mustahkamlanadi.

O'zbekistonga birinchi tashrifim bo'lsa-da, mamlakatlarimiz o'rtasidagi yaqinlikni chuqur his qildim. Albaniya O'zbekiston bilan uzoq muddatli va o'zaro manfaatli iqtisodiy sheriklikni rivojlantirishdan manfaatdor. Biz bu hamkorlikni mazmunli va samarali qilish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishga tayyormiz.

Albaniya yetakchisi Toshkent shahridagi Islom sivilizatsiyasi markaziga ham bordi.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan barpo etilgan mazkur markaz islom madaniyati va ilm-fanning oltin davri o'zida jamlagan yirik ilmiy-ma'rifiy platformadir. Bu yerda asralayotgan noyob manbalar va qo'lyozmalar, dunyo sivilizatsiyasi rivojiga zamin yaratgan fundamental tadqiqotlar xalqaro ilmiy jamoatchilik uchun mayoq bo'lib xizmat qiladi.

Yaqinda ushbu majmua “Dunyoning eng yirik islom sivilizatsiyasi muzeyi” sifatida “Ginnessning jahon rekordlari kitobi”ga kiritildi. Bu e'tirof markazning me'moriy jihatdan muhtashamligi hamda uning global miqyosdagi ahamiyatini ham tasdiqlaydi. Bino

milliy me'morchilik maktabi an'analari va zamonaviy shaharsozlik texnologiyalarining noyob uyg'unligi namunasidir.

Albaniya Respublikasi Prezidenti markazdagi “Islomdan avvalgi sivilizatsiyalar”, “Birinchii Renessans”, “Ikkinchi Renessans” va “Yangi O'zbekiston — Yangi Renessans” deb nomlangan maxsus ekspozitsiyalar bilan batafsil tanishtirildi. Mazkur bo'limlar xronologik izchilikda tuzilgan bo'lib, ular zaminimizdan yetishib chiqqan buyuk allomalarning jahon ilmi-fani, falsafasi va ma'naviyatiga qo'shgan hissasini yaqqol ko'rsatib beradi. Bugungi Uchinchi Renessans g'oyasi mana shunday

mustahkam tarixiy poydevorga tayanishi oliy martabali mehmonda alohida qiziqish uyg'otdi.

Tashrif davomida somoniylar, qoraxoniylar, xorazmshohlar va temuriylar davrlariga oid nodir qo'lyozmalar hamda betakror tarixiy eksponatlar ko'zdan kechirildi. Ushbu asarlar va moddiy madaniyat namunalari o'zbek davlatchiligi tarixi nafaqat siyosiy, balki yuksak intellektual qudrat ustiga qurilganining jonli isbotidir.

Oliy martabali mehmon Islom sivilizatsiyasi markazining “Faxriy mehmonlar kitobi”ga o'z mulohazalarini bitib qoldirdi.

— Islom sivilizatsiyasi markaziga tashrif buyurganimdan g'oyat mamnunman. Prezidentimizning uzoqni ko'ra bilish siyosati samarasida barpo etilgan ushbu ajoyib markaz nafaqat O'zbekiston, balki dunyo hamjamiyati uchun ham bebaho xazinadir, — dedi Albaniya Prezidenti. — Mazkur markaz bu yerga kelayotgan sayyohlar, ayniqsa, yosh avlodning yurtimiz tarixi va madaniy merosi bilan yaqindan tanishishi uchun muhim manba bo'lishiga ishonaman.

Shu bilan Albaniya Respublikasi Prezidenti Bayram Begayning O'zbekistonga rasmiy tashrifi yakunlandi.



Kun mavzusi

Kadastr masalasi keyingi yillarda yangi qurilayotgan ko'p qavatli uylarni xarid qilishda eng muhim jihatga aylandi. Yaxshi niyat bilan pul jamg'arib, xonadon sotib olgan inson kalitni qo'liga olib, o'sha uйда yashay boshlaydi. Ammo surishtirangiz, haligacha kadastr pasporti, ya'ni xonadon unga tegishli ekanini tasdiqlovchi hujjati yo'q. Bunda masala kadastr hujjati yo'qligida emas, balki qurilgan ko'p qavatli kvartira tegishli talablarga javob bermagani bois, foydalanishga topshirishga ruxsat berilmagani bilan bog'liq bo'lib chiqadi.

Qizig'i, fuqaro uy xarid qilishdan oldin obyektning kadastr hujjatini ko'rgan bo'ladi. Gap shundaki, amalda, avvalo, umumiy obyekt uchun kadastr pasporti shakllantirilgan. Undan so'ng obyekt davlat ro'yxatidan o'tkazish va boshqa talablar tekshirilgani bois, ko'p qavatli uy qurib bitkazilganidan keyin ham foydalanishga topshirishni rad etish holatlari ko'p kuzatilgan. Ya'ni uyning kadastr hujjati bor, ammo hali davlat ro'yxatidan o'tmagan. Odamlar esa ana shu kadastrga ishonib, uy xarid qilgan. Bordi-yu obyektida noqonuniy qurilish amalga oshirilgan bo'lsa, umuman ro'yxatdan o'tmasligi ham mumkin. Bundan esa tadbirkor ham, fuqarolar ham zarar ko'radi. Ayni kunga qadar minglab yurtdoshlarimiz kadastr hujjatini olmay, sarson bo'lib yurgani bo'lsa shunda.

Bunday holatlarga chek qo'yish, qolaversa, ko'p qavatli uylarni foydalanishga qabul qilish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish maqsadida Prezidentimizning tegishli farmoni bilan yangi tizim ishlab chiqilib, 2026-yil 1-iyundan boshlab amaliyotga joriy etildi. Unga ko'ra, ko'p kvartirali uylarni foydalanishga qabul qilish, kadastr pasportlarini rasmiylashtirish va davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonlari UZKAD axborot tizimi orqali amalga oshiriladi.

Endilikda ko'p kvartirali uylar uchun kadastr hujjati foydalanishga qabul qilish ruxsatnomasi berilganidan keyingina rasmiylashtiriladi. Bu keyinchalik xonadon sotib olgan kishilarga kadastrlarini shakllantirishda ham muammo bo'lmaydi degani. Foydalanishga topshirish talablariga to'liq javob bermagan, xususan, yer uchastkasi davlat ro'yxatidan o'tmagan obyektlar esa kadastr olinmaydi. Bu odamlarning aldanib qolish ehtimolini kamaytirib, mulkiy huquqlarini himoyalashga xizmat qiladi.

Ko'p kvartirali uy va uning tarkibidagi barcha obyektlar yagona tizimda to'liq hisobga olinadi. Turar va noturar joylardan tortib, umumiy mulk va avtoturargohlarning barchasi haqidagi ma'lumotlar bitta markazlashgan baza — UZKAD axborot tizimi orqali yuritiladi.

ENDI ODAMLAR ALDANIB QOLMAYDI(MI?)! 1-iyundan ko'p qavatli uylarni foydalanishga qabul qilishning yangi tizimi ishga tushdi. Includes QR code for UZKAD system.

yuboriladi. Inspeksiya tomonidan obyektning foydalanishga qabul qilish ruxsatnomasi berilgach, endi har bir kvartira, noturar joy va umumiy mulk obyekti uchun kadastr pasporti shakllantirilib, davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Ya'ni ko'p kvartirali uy barcha talablarga javob berib, foydalanishga qabul qilinganidan keyin o'z-o'zidan undagi xonadonlarga kadastr hujjati beriladi va odamlarni bu masala ortiqcha bezovta qilmaydi. Qolaversa, yangi tizim ishga tushishi natijasida ma'lumotlarning turli platformalarda alohida yuritilishi, ortiqcha qog'ozbozlik va inson omili bilan bog'liq nomutanosibliklar bartaraf etiladi.

Barcha ma'lumotlar yagona tizimda

Davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayonida obyektning har bir qismi hisobga olinadi. Hatto endilikda ko'p qavatli uylardagi umumiy foydalanishdagi joylar, xususan, kirish yo'laklari, liftlar ham uy-joy mulkdorlariga davlat ro'yxatidan o'tkazib beriladi. Avvalgi tartibda ularning huquqiy egasi belgilanmagan. Umumiy mulk uchun kadastr pasporti shakllantirilmagan. Natijada ularning hisobi ham yuritilmagan.

Bu omil ma'lumotlarni yig'ish va rasmiylashtirishda ayrim noaniqliklarni yuzaga keltirib chiqarayotgani, — deydi M.Valiyev. — Chunki eski tizimda umumiy mulkdagi joylar nazarda tutilmagan, ularni kimga rasmiylashtirish bo'yicha aniq mexanizm qilinmagan. Yangi tizimda yangiliklardan biri esa ayni shu jihat bilan bog'liq. Endi ko'p kvartirali uylardagi har kvadrat metr joyning aniq egasi, hisobi bo'ladi. Sohada to'liq raqamlashtirishga o'tib borilayotganini hisobga ham shunda.

Ko'p kvartirali uy va uning tarkibidagi barcha obyektlar yagona tizimda to'liq hisobga olinadi. Turar va noturar joylardan tortib, umumiy mulk va avtoturargohlarning barchasi haqidagi ma'lumotlar bitta markazlashgan baza — UZKAD axborot tizimi orqali yuritiladi. Aniq ma'lumotlar bazasining shakllantirilishi tizimdagi ochiqlik va qonuniyligi ta'minlash, fuqarolarning mulkiy huquqlarini himoyalashga xizmat qiladi.

Yangi tizimni joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad ham shu — yurtdoshlarimizning uy-joy xarid qilishda aldanib qolmasliklari, qonuniy huquqlari kafollanishi, o'z uylariga ega chiqish uchun yillab sarson bo'lmashliklari kerak. Muammo kadastr yoki qurilishda bo'lishidan qat'i nazar, bu odamlar huquqlari va tinchligiga daxl qilmasligi zarur. Yangi tizim ayni jihatga xizmat qiladi.

Endi ko'p qavatli kvartiralar quruvchilariga kadastr hujjatlarini olish oson bo'lmaydi. Bu ba'zi tadbirkorlarga yoqmasligi mumkin. Ammo halol ishlaydigan quruvchilar uchun bu muammo emas, aksincha, shaffof va raqamli tizim anchagina qulaylik tug'diradi. Ularni ortiqcha vaqt va ovoragarchilikdan xalos qiladi.

Shunday qilib, joriy yil 1-iyundan ko'p qavatli uylarni foydalanishga topshirish bo'yicha arizalarni yangi tartibda qabul qilish boshlandi.

Iroda TOSHMATOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bu tizimga ehtiyoj tobora ortib borayotgani, — deydi Davlat kadastrlari palatasi raisi Mohir Valiyev. — Chunki keyingi yillarda ko'p kvartirali uylarni qurish ko'rsatkichlari bir necha barobar ortib, sohada tadbirkorlar sezilarli ko'paydi. Afsuski, ularning hammasi ham qonun doirasida ish ko'rmaydi, natijada ayni yo'nalishda ko'plab fuqarolar aldanib qolayotgani sir emas. O'tgan yili yurtimiz bo'ylab barcha hududda noqonuniy qurilishlar bo'yicha gunlar tuzilib, o'rganishlar qilindi. Jarayonda qurilishga ruxsat olinmasdan turib, fuqarolarga uy sotilgani va odamlar yashab kelayotgani, noqonuniy tarzda qo'shimcha qavatlar qurilgan ko'plab holatlar aniqlandi. Birgina misol, Namangan viloyatida 100 ta xonadonli 2 ta ko'p qavatli uy qurilgan va u yerda 250 ta o'ila yashayapti. Lekin obyekt hali foydalanishga qabul qilinmagan, odamlarning kadastr hujjati yo'q. Ya'ni ular bu uylarda ro'yxatdan o'tmasdan yashab kelyapti. Bunday misollar ko'p va ularning yechimi sifatida soha raqamlashtirib borilyapti. Davlatimiz rahbarining joriy yil 24-fevraldagi "Aholini uy-joy bilan ta'minlash ishlarini jadallashtirish va ko'p kvartirali uylar qurilishini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni bilan shaffof va soddalashtirilgan yangi axborot tizimi ishga tushirildi. Shu asosda "Ko'p kvartirali uy" yagona reyestr ham ishlab chiqildi. Unda har bir obyektning ma'lumotlar bazasi shakllantirilib, bitta axborot tizimiga kiritiladi.

Tartibi qanday?

Demak, endi ko'p kvartirali uylarni foydalanishga qabul qilish to'liq raqamli tizim orqali soddalashtirilgan tarzda amalga oshiriladi. Jarayon besh bosqichdan iborat. Dastlab qurilish



ishlarini yakunlagan quruvchilarning arizalari my.gov.uz portali yoki Davlat xizmatlari markazlari orqali qabul qilinadi va avtomatik ravishda UZKAD tizimiga yuboriladi. Yangi tartibga ko'ra, ko'p kvartirali uy joylashgan yer uchastkasi avval davlat ro'yxatidan o'tkazilgan bo'lishi shart. Bu talab qurilish va mulki rasmiylashtirish jarayonlarining qonuniyligini ta'minlashga xizmat qilishi aytilmoqda.

Arizaga ilova qilinadigan boshqa hujjatlar ham to'liq bo'lishi kerak. Aks holda, ariza rad etiladi. Shuningdek, tasdiqlangan loyiha hujjatlaridan chetga chiqilgan, qo'shimcha

qavatlar yoki kvartiralar qurilgan, umumiy mulklar ko'rsatilmagan hamda yer uchastkasi chegarasidan tashqarida qurilmalar mavjud bo'lgan holatlar ham ariza rad etilishiga sabab bo'ladi. Avvallari arizani rad etish holatlari kadastr hujjatlarini shakllantirganidan keyin bo'lgan. Endi ana shu jarayon ketma-ketligi o'zgartirilib, kadastr pasporti berishdan oldingi holatga o'tkazildi. Ya'ni ko'p qavatli uy foydalanishga topshirish talablariga to'la javob bermasa, unga kadastr hujjati rasmiylashtirilmaydi. Ammo arizaning rad etilishi obyekt mutlaqo foydalanishga yaroqsiz

ekanini anglatmaydi. Quruvchi kamchiliklarni to'g'rilab, qayta ariza topshirishi mumkin.

Ariza qabul qilinganidan so'ng keyingi bosqich — UZKAD tizimida raqamli inventarizatsiya amalga oshiriladi. Bunda kadastr muhandislari obyektga chiqib, yer maydoni, turar va noturar bloklar, kvartiralar hamda umumiy foydalanish joylari bo'yicha o'lchash ishlari bajaradi. Binolarning chizmalari elektron xaritada aks ettiriladi va barcha ma'lumotlar yagona reyestriga kiritiladi. E'tiborli, ushbu jarayonda ham ariza rad etilishi mumkin. Ya'ni loyiha hujjatlaridan tashqari qurilmalar bo'lgan hollarda jarayon to'xtatilib, ariza rad etiladi.

Texnik inventarizatsiya to'liq o'tkazilganidan keyingina ko'p kvartirali uy uchun yagona kadastr pasporti shakllantiriladi. Bu jarayonning uchinchi bosqichi bo'lib, unda uy tarkibidagi barcha bloklar, kvartiralar, noturar joylar va umumiy mulklar haqidagi ma'lumotlar jamlanadi. Mutaxassislarning tushuntirishicha, hozir ushbu jarayon ham ancha soddalashtirilgan.

Eski tartibda kvartiralar, noturar joylar va umumiy mulk obyektlari alohida hisobga olinib, har bir obyekt uchun alohida kadastr pasporti, kadastr raqami berilar edi, — deydi Mohir Valiyev. — Endi bitta bino tarkibidagi obyekt turlaridan qat'i nazar, xususan, kvartiralar, noturar joylar va umumiy mulklar bir vaqtning o'zida rasmiylashtirilib, yagona kadastr pasporti shakllantiriladi. Umumiy obyekt to'g'risidagi barcha ma'lumotlar bitta hujjatda jamlanadi. Bu odamlar uchun ham qulay, bir nechta hujjati ko'zdan kechirishiga to'g'ri kelmaydi, barcha parametrlar bilan bitta kadastr pasporti orqali tanishadi.

Jarayonning to'rtinchi bosqichida hujjatlar elektron tarzda Qurilish nazorati inspeksiyasiga

Loyihadan – natijaga



YAQINGACHA QAROVSIZ EDI... endi pistazorlar hosilga kirdi

Rishton tumanidagi "Navbahor" mahalla fuqarolar yig'ini janubiy hududida "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida ekilgan pistali bog'lar hosilga kirdi.

Poyonsiz kengliklar, baland-past, tosh-shag'aldan iborat yaydoq dalalar asrlar davomida qarovsiz, kimsasiz bo'lgan. Qir-adirlarni o'zlashtirish borasida boshlangan loyiha qaroq dashtu biyobonni yangi hayot nafasini olib kirdi. Bu yerlarga obihoyat olib borilib, 162 gektar yerda yangi bog'lar, "yashil belbog"lar barpo etilganiga ham to'rt yil bo'ldi. Uning 100 gektarini pista plantatsiyalari tashkil etadi. Ayni kunda bu yerda ekilgan dastlabki pista ko'chatlari ilk hosil nishonalarni ko'rsatdi. Shuningdek, o'rik, gilos, shaftoli, nok, olma ko'chatlari parvarishlanayapti. Ekinlar oraliq'ida kavrak, tog' yalpizi singari dorivor g'iyohlar ekish ham yo'lga qo'yilgan. Ko'z ilg'amas kengliklarda nihollar baravaj o'syapti.

Dala-dashtlarni o'zlashtirish oson bo'lgani yo'q, albatta. Bu yerda "Agro cold service drop" MCHJ tashabbusi bilan umumiy uzunligi 3 kilometrdan ortiq yo'l qurildi, 5 kilometrdan elektr tarmog'i tortib kelindi. Yer tekislash, unumsiz qatlamlarni olib tashlash, mahalliy o'g'itlar bilan boyitish uchun 30 dan ortiq doimiy ishchi jalb etilgan. Ikki yuz metr pastlikdan oqib kelayotgan So'x daryosiga ikki ko'tarmali suv nasoslari o'rnatildi, umumiy 16 ming metr kub suv sig'imiga ega 4 ta sun'iy hovuz qurildi, tomchilatib sug'orish tizimlari o'rnatildi.

Oddiy usulda ekilgan pista ko'chatlari 10-12 yilda hosilga kiradi, — deydi xo'jalik bosh agronomi Musajon Qosimov. — Biz intensiv usulda ko'chat yetishtirib, hosildorlikni oshirishga e'tibor qaratyapmiz. Ko'chat-xonalarda o'stirilgan niholga navdor ko'chatlardan olingan kurtak payvandlangach, ochiq maydonlarga ekamiz. Bu usulda ekilgan ko'chatlar 4-5 yilda hosilga kiradi. Pistachilik serdaromad soha. Plantatsiyamizda 218 ming tup pista ko'chati bor. Pista ko'chati dastlab hosilga kirgan yili o'rta hisobda bir kilogramdan hosil bersa, jami 218 tonna bo'ladi. Bu miqdorni o'rta hisobda 100 ming so'mga ko'paytirsangiz, daromad salmog'ini chamlab olish qiyin emas.

Olama go'zallik, musaffolik, yashillik iforini taratayotgan bog'lardagi ko'chatlar rivoji avjida. Mevali bog'larning oxiri ko'rinmaydi.

Rasuljon KAMOLOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Bandlik "AYOLLAR DAFTARIG"GA FAROVONLIK IMZOSINI QO'YDI Tashabbuskor mahalladoshlarini daromadli bo'lishga undamoqda

Bundan besh-olti yil avval Ulug'oy opa ro'zg'or tashvishidan o'ygana talar edi. Oriyat o'limdan qattiq. Birovga dardingni aytib yig'lagandan jim o'tirganing yaxshi deb hech kimga arzihol ham qilmagan. Turmush o'rtog'i qancha harakat qilsa-da, biri ikki bo'lmadi. Ulug'oy opa eriga yordam beray desam, ish yo'q. Qo'ni-qo'shndan surishtirib, besh-oltita tovuq olib keldi. Hovli chekidan katak qilib, ishtiyoq bilan tovuq boqa boshladi. Ammo shuncha qaragani bilan kuniga ikki-uchta tuxumdan boshqa foyda ko'rmedi. O'zicha ish izlab, ayrim idoralarga bordi. Aniq javob bo'lmadi. Shunday kunlarning birida mahalla faollari yo'qlab keldi. Turmush o'rtog'i yumush bilan ketgan edi. Mas'ullar Ulug'oy opadan hol so'rab, subhatlashdi. Ihsizligi bois, uni "Ayollar daftari"ga kiritib, zarur yordam beriladigan bo'ldi. Uy bekasi mehmonlar bilan xayrlasharkan, rasmiyatchilik uchun kelib ketishdi deb o'yladi. Ammo bunday bo'lmadi. Xotin-qizlar faoli ko'p vaqt o'tmay yana izlab keldi. Ulug'oy opaga ayrim takliflarni aytdi. Tijorat banklari ajratayotgan kredit evaziga nima ishlar qilish mumkinligini tushuntirdi. Lekin ayol kam bo'lsa-da, qarzsiz ish boshlashni ma'qul ko'rtdi.

Ertasi kuni o'zi istiqomat qiladigan Mirishkor tumanidagi Obod mahallasi idorasiga bordi. "Mahalla yetiligi"ning maslahatiga ko'ra turli loyihalar bilan tanishdi. Oxiri parrandachilik bilan shug'ullanib ko'rishga qaror qildi. Ishni qanday boshlash, nimalarga e'tibor berish kerak ekanini haqida maslahat oldi. Bu orada "mahalla yetiligi" ham uni qo'llab-quvvatlab turdi. O'rganishlari natijasida Ulug'oy opa broyler zotli kurka yaxshi daromad keltirishini bilib oldi. Buxorolik tadbirkor bilan bog'lanib, undan jo'ja sotib oladigan bo'ldi. Ishga kirishib, oilaviy hashar yo'li bilan hovlisining chetida kattagina katak qurildi. Joy tayyor bo'lgach, uch o'g'itroq qilgand, sotuvchi kurka jo'jalarini uyiga keltirib berdi.

To'g'ri, boshida bir oz ikkilandik. Sababi bunday zotli kurkani boqib ko'rmasdik. Buxorolik tadbirkor o'zi maslahat berib borishini aytganidan so'ng ishini boshlab yubordik, — deydi Ulug'oy Raimova. — Ilgari xonaki tovuq boqqandik. Ammo unchalik natija bermagandik. Keyin turmush o'rtog'im bilan kelishib, kurka boqishni yo'lga qo'ydik. Sigirimizni sotib, shunga sarfladik. Bunga ham uch yil bo'ldi. Dastlab 30 ta kurka olib kelgandik. Bitta jo'jasini 120-130 ming so'mdan sotib olgan bo'lsak, boqib katta qilgach, bir million so'mgacha sotdik. Uzog'i bilan to'rt oyda 15-20 kilogrammacha go'sht qilarkan. Hisoblab ko'rsak, daromad yaxshi. Keyinchalik ko'proq boqa boshladik.



Sarflangan xarajat yuqori foyda bilan qaytganini olinanib bu sohaga qiziqishini yanada oshirdi. Oldin bu ish bilan Ulug'oy opaning bir o'zi mashg'ul bo'lgandi. Keyinchalik kurka boqish oilaviy harakatga aylandi. Turmush o'rtog'ining ta'kidlashicha, bu ishni ayoli shunchaki qiziqish uchun qilyapti deb o'ylagan. Daromadli ish ekanini anglagach, o'zi ham ko'maklasha boshlagan.

Aynan kurka boqayotganlar haqida surishtirib ko'rdim. Tumanimizning biror hududida bu daroga shug'ullanayotgan kishi yo'q ekan. Birinchilardan bo'lib ish boshladik. Hozir mingta kurka boqish uchun sharoitimiz bor. Yaqin atrofdagi mahallalarni, qolaversa, tuman bozorini qisman bo'lsa-da, parandaga o'shti bilan ta'minlayapmiz. Xaridor qidirib yurish shart emas, odamlar o'zi kelib, olib ketadi, — deydi u. — Ilgari biror joyda ishlamasdim. Bu ishga kirishishimiz bilan oilaviy bandligimiz ta'minlandi. Barchamiz foydali ish bilan mashg'ulmiz. Yillik daromadimiz 300 million so'mdan oshib qoldi. Shuning ortidan to'ng'itdik, yengil mashina oldik. Turmush sharoitimiz yaxshi tomonga o'zgardi. Bundan tashqari, tomorqadan foydalanishni ham yo'lga qo'ydik. Hozir ertaki bodring pishdi. Bundan ham oila byudjetiga foyda kela boshladi.

Ulug'oy opaning tashabbusi bilan nafaqat oilasi, balki butun mahallasi farovonlik sari yuz tarmoqda. Boisi u

o'zi kabi uy bekalariga bekor o'tirmaslikni targ'ib qilib, hovlisida kurka boqishga undayapti. Jo'jalarni o'zi yetkazib berib, parvarishlash borasida ham maslahatchiga aylangan. Natijada allaqachon yaqin-atrofdagi o'ngana yaqin xonadonda shu yo'nalishda ish boshlab yuborilgan. Shu paytgacha ihsiz o'tirgan uy bekalarining bandligi ta'minlanib, daromadli bo'lmoqda.

Keyingi yillarda mamlakatimizdagi keng ko'lami ishlohotlar hayotimizning barcha soha va tarmoqlariga yangilanish va yuksalish nafasini olib kirmoqda. Eng muhimi, xotin-qizlarimizning o'z kuchiga, ertangi kunga ishonchi tobora ortib bormoqda. Ularni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada rivojlantirish, jamiyatdagi rolini oshirish, huquqiy manfaatlarini himoya qilish, berilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanish, qonunchilik hujjatlarini qabul qilishda jalb ishtirok etish, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida faoliyat yuritayotganlarini rag'batlantirishga doir chora-tadbirlar ishlab chiqilgan, — deydi Mirishkor tumani hokimi o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i Xolida Hamroyeva. — Xususan, xotin-qizlar bandligi ta'minlash va qo'shimcha daromad manbalari bilan ta'minlash maqsadida hozir tumanida 2297 xotin-qizning bandligi ta'minlandi. Jumladan 111 nafari doimiy ishga joylashtirildi, 10 nafari yakka tartibdagi tadbirkorlik bo'yicha ro'yxatdan o'tkazildi. 176 nafari lider tadbirkorlarga birkirtdagi 8 nafari esa "Hunarmand" uyushmasi a'zozligiga qabul qilindi. 1086 xotin-qizning pillachilik sohada bandligi ta'minlandi. Ihsiz va daromad topish istagidagi kurka-hunar va tadbirkorlik asoslari bo'yicha o'qitildi. Tijorat banklari tomonidan 375 ayolga 5.7 milliard so'mlik kredit ajratildi. Qishloq xo'jaligi sohada 382 xotin-qiz daromadli mehnatga jalb etilgan. Shuningdek, Yangi Mirishkor, Baraka, Gulobod mahallalaridagi bo'sh binolar va tadbirkorlik subyektlarida namunaviy tipdagi xotin-qizlar bandligi ta'minlash va salomatligini mustahkamlash markazlari tashkil etilib, ularda 50 dan ortiq xotin-qizning bandligi ta'minlandi.

Bugun o'z qishloqlardagi ayollar ham jamiyatda o'z o'rni uchun qat'iyat bilan, Ulug'oy opa kabi tashabbuskorlarga ergashib, oila byudjetiga hissa qo'shmoqda. Natijada oilalar kambag'allikdan farovonlik sari dadil odimlayotgani har bir hududda ko'zga tashlanayapti.

Akbar RAHMONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

Davra suhbatlari



YENG SHIMARIB, YELKADOSH BO'LIB IJOD QILADIGAN PAYT KELDI

Joriy yil 1-iyun sanasi mamlakatimiz hayotida chinakam tarixiy kunga aylandi. Davlatimiz rahbarining adabiyot, madaniyat va san'at vakillari bilan dildan muloqot qilishi sohaga chuqur hurmatning amaliy ko'rinishi bo'ldi, desak yangilishmaymiz. Endilikda ijod ahli ham alohida imtiyoz va imkoniyatlarga ega bo'lmoqda. Madaniyat esa investitsiya talab qiluvchi strategik tarmoq sifatida ko'rilyotir. Uchrashuvda ishtirok etgan teatr sohasi vakillari ham tizim tarixida kuzatilmagan bunday yangiliklardan baxtiyor. Biz esa ularning ayrimlari bilan shu mavzularda gaplashdik.

Ra'no YARASHEVA, O'zbekiston xalq artisti:



— Bilasizmi, davlatimiz rahbari bilan muloqotdan so'ng bir-birimizga "Bunaqasi hech qachon bo'lmagan", degan gapni juda ko'p aytdik. Aslida, men bu uchrashuvda so'zlashga tayyorlanmagan edim. Lekin biz, ijod ahliga ko'rsatilgan otalarcha mehr uchun minnatdorlik bildirmay tura olmadim. Chunki shunday davrlarni ham ko'rdikki, butun boshli jamoaga birorta ham mukofot yoki unvon berilmagan edi. Har qanday dolzarb mavzuga "labbay" deb javob beradigan otaxon teatrga-ya?! O'shanda jamoa bo'lib o'ksinganimiz. Bugungi bag'rikenglikni qarang! Ham mukofot, ham e'tirof, shuningdek, qator-qator yengilliklar berildi. Bu ijod ahli uchun o'ziga xos katta bayram bo'ldi. Bundan qanday qilib hayajonlanmaslik mumkin?!

Ma'suda OTAJONOVA, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist:



— To'g'ri aytasiz, chindan ham bu yilgi yozning birinchi kuni hech qachon unutilmas bo'ldi. Xursandchiligimni ta'riflashga til ojiz. Chiroyli kunda chiroyli mukofotlarni olishning gashli boshqacha bo'lar ekan. Benihoya mamnun bo'ldik.

Prezidentimiz bizdan "Charchamadingizmi?" deb so'raganda, hayajonlanganimdan faqatgina "Yo'q" deya olgan edim. Endi esa ijodga shunchalik katta e'tibor qaratilayotgan yurtda, davlatimiz rahbarining o'zi bosh bo'lgan katta bir karvon safida borishdan nima uchun charchashim kerak degan so'zlar o'tyapti dilimdan. Ich-ichimdan san'atga bo'lgan cheksiz muhabbat jo'sh urib, g'oyibona bir kuch va g'ayrat uyg'ondi. "Ijodkorlar bayrami" desa bo'ladigan o'sha tarixiy kunda mamlakat bo'ylab barchaning kayfiyatida ko'tarinkilikni ko'rdik. Bu ham bo'lsa, xalqimizning bizga nisbatan hurmati va mehridir.

Turg'un BEKNAZAROV, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist:



— Bugun ota-bobolarimiz orzu qilgan dorilamon kunlar, xotirjam yashaydigan davrlar keldi. Ayniqsa, san'at va ijod ahli uchun juda katta imkoniyatlar yaratilmoqda. Prezidentimiz hech bir sohani e'tibordan chetda qoldirayotgani yo'q. Inchinun, madaniyat va san'atni ham. Aks holda, biz bilan bo'lgan muloqotda ijod ahlining eng mayda muammolarigacha tilga olinmagan bo'lardi. Bizning har bir qilayotgan ishimizdan shu qadar xabardor ekani hayratimizni yanada oshirdi.

Elmira RAHIMJONOVA, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist:



— Ochig'i, biz bunday imkoniyatlarni yillar davomida kutib kelayotgan edik. Biroq birdaniga berilgan shuncha imtiyoz, yaratilgan sharoit va keng ko'lamlil tuhfalardan shoshib qoldik. Tizimdagi kamchiliklar shu darajada mukammal o'rganilganki, ularning yechimi sifatida, qolaversa, biz, soha xodimlariga munosib sharoit yaratish maqsadida imzolangan ushbu hujjat barchamizga tom ma'noda qanot bo'ldi.



Elyor NOSIROV, O'zbekiston xalq artisti, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibi:

— Uchrashuvda e'lon qilingan imtiyozlar va raqamlar shu darajada ko'pki, ochig'ini aytсам, hali ularning barchasini tahlil qilib ulguramizcha yo'q. Biroq bir narsani alohida



ta'kidlashni istardimki, "Farmon imzolandi, bo'ldi, hammasi zo'r bo'lib ketadi", deb qo'l qovushtirib o'tirmasdan, o'zimiz ham yanada astoydil mehnat qilishimiz kerak. Axir shuncha imtiyoz va imkoniyatlar javobi hali, albatta, so'raladi.

Endi faqatgina tomoshabingizga ma'qul keladigan yaxshi asarlar ustida izlanishimiz kerak. Xo'sh, yaxshi asar nima degani o'zi? Modomiki biz islohotlar targ'ibotchilari ekanimiz, faqatgina komediyalar bilan cheklanib qolmay, chuqur saviyali, ijodiy ishlarimiz ham bo'lishi kerak. Aslida, birorta ham san'at turi insonni yomon yo'lga boshlamaydi, ularning barchasi ezigulik xizmat qiladi. Eng muhimi, xalqimiz va bolalarimiz madaniyatli, bilimli bo'lib voyaga yetsin. Prezidentimiz ham, avvalo, mana shunga harakat qilmoqda.



Tolib MO'MINOV, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist:

— Yaxshi bilasizlar, odatda davlat mukofotlari bilan taqdirlash marosimlari katta bayramlar arafasida bo'lib o'tardi. Yoxud bunday xushxabarlarni Teatr kuni yoki madaniyat sohasi vakillari bayrami oldidan eshitir edik. "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist" degan yuksak unvonni olish o'zim va oilam uchun katta bayram bo'ldi. Bu har bir ijodkor uchun benihoya qadrlir. Zero, sahnaning changini yutasan, teatrdan mehnat qilasan, kamera ortida, kinoda, televideniye va dublyajda tinimsiz yugurasan — shu tariqa umr o'taveradi. Bir



kun kelib, bu mashaqqatlarning natijasini ko'rganingda esa ortga boqib, haqiqat baribir qaror topishiga amin bo'lar ekanam.

"Ummi zoye etma, mehnat qil, mehnatni saodatiga kaliti bil", degan Navoiy bobomiz. Demak, saodat bu, menimcha, mehnatim bo'lsa, uning kaliti ko'ksimga qadalgan shu unvondir.

O'zingizga ma'lum, bizda turli tadbirlar va uchrashuvlar ko'p bo'ladi. Gastrol safarlariga chiqqanimizda ham sarosimga tushar edik: tomoshabin yig'ish mashaqqati ko'pincha ijodkorning o'ziga qolib ketar edi. Endilikda bunday tashkiliy ishlarga maxsus mas'ullar birlashtirildi. Viloyatlarga borib xizmat ko'rsatganimizda maoshimizga ikki barobar ustama haq qo'shilishi ham tariximizda hech bir davrda kuzatilmagan imtiyozlardan biri bo'ldi.

Adabiyot, san'at va madaniyat sohasi vakillari uchun imtiyozli kreditlar ajratilishi, shuningdek, ipoteka krediti boshlang'ich to'lovining 50 foizi davlatimiz tomonidan qoplab berilishi ijodkorlarning cheksiz quvonchiga sabab bo'ldi. Axir oramizda uzoq yillar davomida uy-joy masalasida qiynalib, ijarda yashab kelayotgan ijodkorlarimiz talaygina. Endilikda har yili ularning kamida 1000 nafari o'z boshpanasiga ega bo'ladi.

Ra'no YARASHEVA: — Ha, albatta, ijodkor halovat topsagina uning ijodi gullab-yashnaydi. Agar uning uy-joy masalasida muammosi bo'lsa, butun

xayoli, avvalo, boshpana qilish tashvishi bilan band bo'lib qoladi. Shuning uchun endi bu masalaga juda jiddiy kirishilmoqda. Yosh ijodkor oilalarning imtiyozli ipoteka kreditidan foydalanishi ularning hayotida ancha yengillik yaratadi. Butun boshli shu katta muammo arisa, yoshlarning ko'ngli xotirjam topib, miyasiga yangi-yangi g'oyalari va tashabbuslar kelaveradi.

Ijodga hamma mamlakatlarda ham burchalik yuksak e'tibor qaratilavermaydi. Biz buni turli sayohatlarimiz va xorijiy xizmat safarlarimizda bo'lganimizda o'z ko'zimiz bilan ko'rib, his qilib qaytaymiz. Turg'un akam aytganidek, yurtimizda birorta soha davlat e'tiboridan chetda qolgan yo'q. Shuning uchun barcha soha vakillariga qaratilgan "Mehnat qiling, tinimsiz ishlang, shunda albatta, yuzaga chiqasiz", degim keladi. Mana, o'zingiz aytib, ilgari viloyatlarda ishlayotgan ijodkorlarni kim shunchalik ulug'lagan edi? Hozir viloyat teatrlari ham poytaxtdagilar bilan birdek e'tibor markazida. Hayot bo'lgan ijodkorlarni rag'batlantirish o'z yo'lga-ya, ammo marhum ijodkorlarimiz ham qadrlanayotgani-chi?! Ularning farzandlari va yaqinlari bundan qanchalik xursand bo'lmoqda.

Turg'un BEKNAZAROV:

— Ha, qaniydi o'zimizning ustozlarimiz, o'zbek teatrimiz tamol toshini qo'yg'an buyuk ijodkorlar mana shu dorilamon kunlarni ko'rganida edi. Ayniqsa, bepul davolanishimiz mumkinligi va eng muhimi, yoshlarga uy-joy masalasida yaqindan yordam berilishi chinakam olqishlarga sazovor tashabbuslar bo'ldi, shunday emasmi? Nazarimda, qaysi jamiyat ijod va san'atni yuksak qadrlasa, o'sha davlatning ma'naviy immuniteti mustahkam bo'lshini endilikda xalqimiz ham chuqurroq his qila boshladi.

Shunday ekan, bunga javoban biz, katta avlod ijodkorlari "ustoz-shogird" an'anasini yanada jonlantirishimiz lozim. Har bir shogirdning qalbida, yuragida san'atga haqiqiy muhabbatni uyg'otib, o'zimizning tajriba va mahoratimiz bilan ularning ongida chuqur iz qoldirishimiz kerak. Modomiki san'atga qadam qo'ydikmi, o'zimizni faqat mana shu yo'lga ko'rishimiz va borimizni shunga bag'ishlashimiz kerakligini vaqtida ustozlarimiz ham bizga uqtirib ketgan.

Tez orada 21 ta ijodiy birlashma tashkil qilindi. Ustoz ijodkorlar shu birlashmalarda bir yil davomida o'z mahoratlarini namoyish etsa, ularga har oy 5 million so'mdan haq to'lanadigan bo'lyapti. Agar o'sha davr mobaynida qancha ko'p yoshlarni o'z atrofiga jalb qila olsa, ularga ikki barobar ko'p maosh beriladi. Ijodkorlarning badiiy kechalari, mahorat maktablari va ijod uylari tashkil etilayotgani qanday yaxshi yangilik bo'ldi! Axir bunday kuchli qo'llab-quvvatlov va bunaqag'ay keng imkoniyatlar qachon bo'lgan edi?! Shu ma'noda, Prezidentimizga barcha ijod ahli, qolaversa, Muqimiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik musiqali teatrimiz qariyb 300 kishilik jamaosi nomidan chuqur tashakkur bildirmoqchiman. Kelinglar, bizga yaratilayotgan bunday imkoniyatlarga faqat va faqat "labbay" deb javob qaytarib, tinimsiz mehnatimiz va yangi-yangi ijod mahsullarimiz bilan xalqimizga xizmat qilaylik.

Elyor NOSIROV:

— Ochig'i, faxriy unvonni olgandan keyin yanada qattiqroq ishlash kerak. 73 yoshga chiqdim. Ammo endi men kabi katta yoshli ijodkorlarning "Qarilik gashтини surib, uyda yonboshlab yotamiz", deyishiga hech qanday o'rin qolmadi. Ko'ksimizga qadalgan orden bizga juda katta mas'uliyatni ham yukladi. Farmonda belgilangan mana shunday jihatlarning barchasini birma-bir tahlil qilib

chiqishimiz kerak bo'ladi. Har bir ijodiy jamoa ushbu farmoni diqqat bilan o'qib, keng muhokama qilishi lozim. Xo'sh, bundan buyon nima ishlarni amalga oshiramiz? Agar har birimiz: "Yarim yildan keyin bizdan natijalarni so'rashlari aniq", degan mas'uliyatni o'z bilan yashasak va ijod qilsak, albatta, hammasi yaxshi bo'ladi.

Ma'suda OTAJONOVA:

— Prezidentimiz uchrashuv davomida hattoki spektakllar uchun sotiladigan chiptalarimizgacha e'tibor qaratib gapirganiga qoyil qoldim. Endi teatrlar spektakl uchun sotilgan har bir chiptaga davlat byudjetidan qo'shimcha 10 ming so'm miqdorida honorar o'ldirilgan bo'ldi. Agar ijodkorlar o'z sahnasini chekka hududlarga chiqib namoyish qilsa, ularga har bir chipta uchun 20 ming so'mdan honorar to'lanadigan yangi tizim yaratilmoqda.

Yoki boshqa hududlardan poytaxtga kelib ishlayotgan, o'z uy-joyiga ega bo'lmagan madaniyat, san'at va adabiyot sohasi vakillariga uy-joy ijarasi to'lovlarining bir qismi qoplab berilishi orqali katta amaliy yordam ko'rsatilishini aytmaymizmi?!

Elmira RAHIMJONOVA:

— Davlat madaniyat obyektlari bizga bepul foydalanish uchun ajratiladigan bo'ldi. Agar xususiy teatr binosi ijaraga oladigan bo'lsa, uning oyiga 20 million so'mgacha bo'lgan xarajatlari to'g'ridan to'g'ri byudjet mablag'lari hisobidan yo'naltirilishi belgilandi. 2028-yilga borib, mamlakatimizdagi nodavlat teatr va teatr-studiyalar sonini 50 taga yetkazish orqali teatr sohasida xususiy sektorning ishtirokini 25 foizga oshirish maqsad qilinmoqda. Ochig'ini aytganda, sohadagi nodavlat teatrga, umuman olganda, ijod ahliga bunday yuksak himmat va e'tibor ilgari hech qachon ko'rsatilmagan edi. Mana, endi butun e'tiborimizni faqatgina sifatli va saviyali asarlar yaratishga hamda o'z ustimizda yanada jiddiroq ishlashga qaratamiz.

Ra'no YARASHEVA:

— Ruksat bersangiz, barchangizning nomingizdan bugungi suhbatimizga yakuniy so'z aytсам. Yuqorida biz yurtimizda hech bir soha e'tiboridan chetda qolmayotganini e'tirof etdik. Demak, bugungi kunda faqatgina san'atkorlar emas, barcha kasb egalari va turli sohalardagi davlat xizmatchilari ham o'z hayotidan rozi bo'lib yashamoqda. Amalgah oshirilayotgan bu ezgu ishlar hattoki "Voy, umrim o'tib ketdi, men endi keksayib qoldim", degan umidsiz ijodkorlarni ham go'yo uyqudan uyg'otib yubordi.

Shu o'rinda yana bir narsani alohida aytib o'tishni istar edim: avvallari "Falon joyda yangi ko'priklar qurilibdi", "Chiroyli bog' yaratilibdi" yoki "Yangi zavod ishga tushibdi" qabilidagi xushxabarlarni kam eshitir edik. Hozir esa har kuni kamida 3-4 ta yana shunday quvonchli xabar qulog'imizga chalinmoqda. Shuning uchun ham men yangi O'zbekistonimiz chinakam baxtiyorlar mamlakatiga aylanib borayotganiga qat'iy ishonaman. Kelajakda nevaralarimiz bundan-da oljanob ishlarga guvoh bo'lshiga hech qanday shubham yo'q. Chunki bugungi kunda biz, ijodkorlarga ko'rsatilayotgan bunday yuksak hurmat va ehtirom namunasini kelajak avlodlarimizning hayotida ham g'oyatda muhim o'rin tutadi.

Yangi O'zbekistonimizga hech qachon ko'z tegmasin! Sport, ilm-fan va boshqa barcha sohalar singari san'at va madaniyat ham jonajon yurtimizni butun dunyoga ko'z-ko'z qilishda davom etsin! Ijod namunalimiz xalqlarni va millatlarni bir-biriga chambarchas bog'lovchi mustahkam ma'naviy ko'priklar vazifasini bajaraversin!

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Munojat MO'MINOVA tayyorladi.

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir: Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul. Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646. 30166 nusxada bostildi. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. "SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov Musahhib: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilibiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy